

OTA-ONALARING FARZAND TARBIYASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BILAN HAMKORLIK ISHLARI

Choriyeva Shalola Baxtiyorovna
Kodirova Barno Samijonovna
Axmedova Rayhona Axmadjonovna

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda bog'cha bilan ota-onalarining hamkorlik mexanizmlari batafsil yoritilgan bo'lib, bolani maktabga tayyorlashda ota va onaning vazifalari hamda bog'chaning ta'limgardagi qarashlari ilmiy amaliy jihatdan pedagogik qonuniyatlar asosida tahlil qilib berildi.

Kalit so'zlar: Davlat talabi, maktabgacha ta'limgardagi yoshi, test, so'rovnomalar, psixodiagnostika.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limgardagi qo'yiladigan Davlat talablari» orqali nazorat qilinadi. Davlat talablaridan maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'limgardiyi mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorlarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib u davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi.

Maktabgacha ta'limgardi tashkiloti pedagogi hamkorlikda ishlaydigan oila bilan jamoa qadriyatlari, turmush tarzi, o'ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o'qishi va rivojlanishiga hissa qo'shadigan ko'plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar farzandlar oilada va jamoada nimalarni o'rganayotganiga tayanib, ta'limgardagi imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'limgardiyi va tarbiya" to'g'risidagi Qonunga muvofiq bola maktabgacha ta'limgardagi oshishiga mustaqil ta'limgardiyi berish orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'limgardi tashkilotlarida shuningdek, maktabgacha ta'limgardi tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'limgardi tashkilotlarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Maktabgacha yoshdagi bolanining maktab ta'limgardiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarda anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani uydaligidayotgan maktab ta'limgardiga tayyorlash, uncha qiyin bo'limgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ldi.

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan, maktabgacha ta'limgardi tashkilotida tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallahga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Maktabga umumiy tayyorlarlik bolanining maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolanining maktab ta'limgardining yangi sharaoitlariga va o'quv materialining ongli egallahga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi. Aksariyat hollarda bolanining aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so'z boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'proq e'tibor beriladi. Ota-onalar, hatto ayrim o'qituvchilar ham bola qanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'laydilar. Aslida esa unday emas, fan-teknika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida suzib yurgandek bo'lmoqdalar. Bu esa ulardagi so'z boyliklarning keskin o'sishiga asos bo'lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanayapti, degan gap emas. Maktabda amal qilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, so'rovnomalar, asosan bolada yuqorida

keltirib o‘tilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo‘ljallangan metodikalardan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Bolalarni jismonan rivojlantirish.

2. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.

3. Bolalarni ma’nан rivojlantirish. Maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalariga tayangan holda «Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi» fanining maqsadi talabalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning metod va usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Bolalarni maktabga tayyorlashda biologiya, psixologiya, yosh psixologiyasi bilan ham bog‘liq holda rivojlanadi. Fiziologiya bolalarni maktabga tayyorlashda tabiiy-ilmiy bazasi bo‘lib, u birinchi navbatda inson oliv nerv faoliyatining rivojlanish, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari, sezgi organlari, tayanch harakat apparati, yuraktomir va nafas olish sistemalari, ichki sekresiya bezlari va shu singarilarning rivojlanishi haqidagi ma’lumotlarga tayanadi. Bolalarni maktabga tayyorlashda ana shu ma’lumotlar negizida ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish masalalarini muvaffaqiyatliroq hal eta oladi, psixik voqealar va jarayonlarning ayrim qonuniyatlarini chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hozirgi zamon fiziologiyasi eng muhim pedagogik muammolarni to‘g‘ri hal etishda: bolalarning rivojlanishiga, uning qobiliyatlarini shakllantirishga muhit, irsiyat va tarbiyaning ta’siri va shu singarilarni belgilashda yordam beradi. O‘sib borayotgan organizm tuzilishining va harakat qilish qonuniyatlarining asosiy prinsiplarini olib beruvchi yosh fiziologiyasi ta’lim-tarbiya berish masalalarini ishlab chiqish uchun ayniqlashtirishga ega. Bu xususiyatlarni bilmay turib, tarbiyalanuvchilarining yoshiga muvofiq tarbiya vositalari va metodlarini, u yoki bu mashg‘ulotlarni yoki tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishning tashkiliy shakllarini to‘g‘ri belgilab bo‘lmaydi. Fiziologiyaning oliv nerv faoliyati, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalar pedagogika o‘quv-tarbiya jarayonini metodikasini ishlab chiqishda, bolalar faoliyatlarini uchun yaxshiroq shart-sharoit yaratishda yordam beradi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo‘lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlikning borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib xilma-xil va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shakl va usullar yordamida rejali va izchil ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ota-onalar bolalarini birinchi marta bolalar bog‘chasiga olib boradigan kun ko‘pgina hissiy tuyg‘ular bilan bog‘liq. Shuning uchun ham har yili avgust oyining ikkinchi yarmida ota-onalar uchun maktabgacha tarbiya tashkiloti bo‘yicha ekskursiya, uchrashuv hamda umumiylar o‘tkazish mumkin. Bunda bog‘chaning rejimi, ish mazmuni, ta’lim-tarbiya jarayoni va hokazolar haqida so‘zlab beriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ota-onalar bilan ishlashning jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishslash shakllarini mohirlik bilan qo‘sib olib borish, keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobjiy natijalarga erishi mumkin. Bolalar bog‘chasi xodimlarining ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarning eng keng tarqalgan shakl va usullaridan bir nechalarini keltiramiz:

- Ota-onsa va oila bilan yakkama-yakka ishslash. Ilg‘or pedagogik tajribalarning ko‘rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega va kutilgan samaralarni beradi. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganib, ularni o‘zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. Buning natijasida tarbiyachi bilan oila o‘rtasida do‘stlik munosabatlari, o‘zaro hurmat va ishonch tezroq o‘rnataladi. Bog‘chalarimizning tajribasida ota-onalar va oila bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan, ya’ni oilaga tarbiyachining borishi ota-onalar uchun suhbat o‘tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarni bolaning bog‘chadagi hayoti bilan tanishtirish va shu kabilalar.

- Ota-onalar bilan jamaa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar (bolalar bog‘chasi xodimlarining ota-onalar bilan birgalikdagi amaliy faoliyati), savol va javob kechalari.
- Ko‘rsatmali ishlar. Ishning bu turi: krgazmalar, fotomontajlar, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari (ota-onalar burchagi), ota-onalar uchun kutubxona, oilaviy tarbiyaning turli masalalari bo‘yicha materiallar solingan papka va shu kabilarni qamrab oladi. Albatta bu shakllarning boshqacha ham bo‘lishi mumkin. Bu ishga ijodiy yondashish bog‘cha mudirasi, tarbiyachilar hamda ota-onalarning o‘zlariga (ayrim hollarda tajribali ota-onalar maslahat berishlari mumkin) ham bog‘liqdir.
- Bolaning oilasini borib ko‘rish va oila a’zolari bilan yaqindan tanishish.
- Ota-onalarga pedagogik ta’lim berish va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Bularning orasida bolaning oilasiga borish va oila a’zolari bilan yaqindan tanishish hamma uchun ham oydingina oson ish hisoblanmaydi. Ota-onalar va oila bilan hamkorlikda olib boriladigan ish shakllarining ayrimlarini qanday muvofiq deb hisoblaymiz. Bola yashab turgan oilani o‘rganish, ota-onalar bilan yaqin aloqa o‘rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo‘llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas, balki maslahatchi, do‘sit va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsadi bola tarbiyalanayotgan sharoitni ko‘rish va zarur bo‘lsa. Ota-onalarga yordam ko‘rsatishdir. Shuning uchun tarbiyachi ota-onalarga aytadigan takliflarini sinchiklab o‘ylab ko‘rishi kerak. Bolalarni uylariga borib ko‘rish ishi ma’lum maqsad asosida tashkil etilganda oilaviy tarbiya bilan tanishish, bolaning oiladagi xulqining o‘ziga xos xususiyatlarinigina aniqlashdan iborat bo‘libgina qolmasdan, balki ota-onalar bilan yakkama-yakka va jamaa tarzida tashkil etiladigan ishlarining mazmunini, ularning turli shakllarini belgilab olishga ham imkoniyat tug‘diradi. Ayrim vaqtida bunday hodisani ham kuzatish mumkin: oilada bolaga ko‘p e’tibor beriladi va g‘amxo‘rlik qilinadi, oilada tartib to‘g‘ri o‘rnatilgan, bolaning ovqatlanishi yaxshi, bolaga hech qanday topshiriq berilmagan. Bola o‘z joyini va o‘yinchoqlarini o‘zi yig‘ishtirmaydi, uning bu ishini ota-onasi yoki oilaning katta a’zolari bajariladilar. Tarbiyachi bu holda ota-onalar uyida bolaga alohida joy, burchak ajratilishlari kerakligini maslahat beradi, bu tadbir oilada hayotining to‘g‘ri tashkil etilishiga imkon beradi. O‘z burchagida bola yashaydi, o‘ynaydi, rasmlar chizadi, o‘yinchoqlar yasaydi va hokazo. Oilani birinchi bor borib ko‘rish, ayniqsa mas’uliyatlidir. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan oila orasidagi tarbiya bir-birini tushunish, ishonch va ijobiy aloqani o‘rnatilishida bu ishning qanday o‘tishiga bog‘liqdir. Oilaga tashrif buyurishdan avval uning a’zolari, ota-onalarning kasblarini, ularning ish joylarini va hokazolarni ifodalovchi ma’lumotlarni o‘zlarini aniqlashlari zarur. Agar tarbiyachi oilani borib ko‘rishiidan avval o‘zi uchun bolaning rivojlanish va tarbiyalanganlik darajasi xarakteristikasini tuzib olsa, oilani borib ko‘rish yanada samarali bo‘ladi. Bu holda, ota-onalar bilan aniqlash va muhokama qilishni talab qiluvchi jihatlarini ajratib olish kerak. Birinchi borib ko‘rish tarbiyachiga oilaning hayot tarzi haqida, oilaviy «vaziyat», bolaning oiladagi tarbiyasi haqida umumiy tasavvur berishi kerak. Keyingi tashriflar tarbiyachiga bola tarbiyasining aniq masalalarini mufassal fahmlab olishga imkon beradi. Oilani takror borib ko‘rishda tarbiyachi uning maslahat va takliflari bajarilgan yoki bajarilmagani bilan qiziqadi. Oilani borib ko‘rishiidan maqsadi va mazmuni tarbiyachining rejasida, hisobga va maxsus kundaligida aks ettirilishi kerak. Oilani yilliga kamida ikki marta borib ko‘rish tavsiya etiladi. Oilaga tashrif buyurishlar, anketa ma’lumotlarini tahlil qilish, ijobiy tajribaning umumiy manzarasini va oilaviy tarbiyadagi o‘ziga xos qiyinchiliklarini ochib beradi. Bu esa mudiraga va tarbiyachiga turli yoshdagи guruh ota-onalarining pedagogik madaniyatini oshirishga, tarbiyachilarning ota-onalar bilan olib boriladigan ishini ma’lum tizimida yo‘naltirishga yordam beradi. Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo‘llanadigan suhbat-bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurin jo‘natish vaqtida o‘tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar va ota-onalarning bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga, bir-birlarini bolaning hayoti haqidagi ma’lumotlar bilan xabardor qilishlariga, uning muvaffaqiyatilari va kamchiliklari, hulqi,

va sog‘ligidagi o‘zgarishlarni kuzatishga yordam beradi. Shaxsiy maslahatlar suhbatga ancha yaqin keladi. Ota-onalarning bola tarbiyasida yo‘l qo‘yan biror kamchilik va xatosini tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o‘tkazishning zarurati tug‘ilganda va ularga vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat hamda tavsiya berish kerak bo‘lganda maslahatlar o‘tkaziladi. Maslahatlar ancha tor masalalarni chuqur yoritishga imkon beradi. Ular uchun mavzu tanlash bolalarni kuzatish natijalariga yoki tarbiya muammolariga qarab belgilanadi.

Shunday qilib, maktabdagi o‘qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof dunyo haqidagi anglangan tasavvurlar, nutq va elementar o‘quv faoliyati umumiy darajasining birligi, maktabda muvaffaqiyatli o‘qishning zaruriy sharti hisoblanadi, bu esa biz pedagoglar hamda ota-onalarga katta ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyyotlar ro‘yxati:

1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (barcha yosh guruhlari uchun) 2018 y.
2. O.U. Hasanboyeva va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Pedagogika kolleji uchun o‘quv qo‘llanma (3-nashr) T.: “Ilm ziyo”, 2012 y.
3. <http://www.edu.uz>
4. <https://fayllar.org/maktabgacha-talim-tarbiyachilari-kasbij-ajta-tajerlov-v2.html?page=4>